

## MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORI

Abror Avazovich Nazarov

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Mustaqillik yillarida O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati hamda uning dorasida amalga oshirilayotgan qator amaliy islohotlar, Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston - Taraqqiyot Strategiyasi" nomli kitobida bugungi kunda Yangi O'zbekistonni va Uchinchi Rennensans davrini barpo etish borasida hamda aynan yoshlarga oid bo'lgan ko'plab maqsad va vazifalar, ularning mazmun-mohiyati hamda millatimizning yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish uchun muhim vazifa sifatida belgilab olingan strategik yo'l va milliy taraqqiyotimiz haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Rennensans, strategiya, demokratiya, fenomen, taraqqiyot, siyosat, kodeks, qaror, dastur, farmon

## SPIRITUALLY PERFECT YOUNG PEOPLE ARE THE BUILDERS OF THE NEW UZBEKISTAN

Abror Avazovich Nazarov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**Abstract:** In this article, the state policy regarding youth in Uzbekistan during the years of independence and a number of practical reforms implemented in its wake, the book "New Uzbekistan - Development Strategy" by President Shavkat Miromonovich Mirziyoyev, about the establishment of New Uzbekistan today and the Third Renaissance period. and many goals and tasks related to the youth, their essence, as well as the strategic path and our national development, which have been determined as an important task for raising our nation to a new stage of development, will be discussed.

**Keywords:** Renaissance, strategy, democracy, phenomenon, development, policy, code, decision, program, decree

Bugungi kunda yoshlarimizning mustaqil fikr yuritadigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishlari, baxtli bo'lishlari va buning uchun aynan bugungi kunda davlatimiz tomonidan davlat va jamiyatimizning bor

kuch-quvvati hamda imkoniyatlari safarbar etilayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu sababli bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtiga qadar - ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshlaganmiz deydi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich.

Xususan davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Tashkil etilgan vazirlik maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari hamda texnologiyalarini tatbiq qila olish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy estetik, jismoniy rivojlantirish va ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash kabi vazifalar ijrosini ta'minlaydi. Ta'limda ilk qadam hisoblangan ushbu bosqich farzandlarimizning kelajakda erishishi mumkin bo'lgan yutuqlari uchun asosiy poydevori hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim sohasini yanada rivojlantirish maqsadida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi hamda 2030-yilga qadar maktabgacha yoshdagi bolalarning 80,8 foizini qamrab olish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Xalq ta'limi tizimida islohotlarga qaratilgan me'yoriy-xuquqiy bazani shakllantirish hamda takomillashtirish maqsadida so'nggi uch yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi.[1.9-bet].

Yoshlarni xalqaro olimpiadalarga maqsadli tayyorlash yangi tizimi joriy etilishi natijasida, o'quvchilarimiz xalqaro fan olimpiadalarida medallarga sazovor bo'lishmoqda. Kelajak uchun qo'yilgan qadam hamda ta'lim darajasi va sifati har qanday davlatning istiqbolini belgilab beruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Haqiqatdan ham, yuritilayotgan islohotlarning taqdiri, natijasi, birinchi navbatda kadrlar saviyasiga, ularning davr va taraqqiyot talablariga qanchalik javob bera olishiga bog'liq.

Jahon jamiyati bilan tenglik hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish - Yangi O'zbekistonni barpo etishning yana bir muhim sharti va omili hisoblanadi hamda yurtimizda ilm-fanning rivojlanishi va yoshlarimizga qaratilayotgan e'tibor, ularning o'sishi va rivojlanishi zarur bo'lgan shart-sharoitlarning yaratib berilishi, yoshlarimizning kelajakda o'z o'rniga ega bo'lishi hamda ularni qo'llab-quvvatlash

ularni yangi muvaffaqiyatlar tomon olib boradi. Yoshlarimiz tomonidan erishilayotgan barcha yutuqlari va ilm-fan sohasidagi yangiliklari yurtimizning rivojlanishi uchun hamda o'z navbatida rivojlangan davlatlar qatoridan o'rn egallashi uchun o'z ta'sirini ko'rsata oladi albatta.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi yurtimiz tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Jumladan:

Birinchi tashabbus - yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va sa'natning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus - yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus - aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus - xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Ushbu 5 tashabbus keng jamoatchilik tomonidan katta qiziqishlar bilan qarshi olindi hamda alohida e'tibor qaratilib ushbu tajribani barcha tashabbuslar bo'yicha yurtimizning har bir hududlarida keng joriy qilish masalalari muhokama qilindi va yuritilgan sa'y harakatlarning natijasida jumladan:

Madaniyat vazirligi va Xalq ta'limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman hamda shaharlarda madaniyat markazlari va umumta'lim maktablarida yoshlarimizning qiziqishlaridan kelib chiqib qo'shimcha 1,5 mingta to'garaklar tashkil etish vazifasi oldinga qo'yildi.[2. [www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)].

Taniqli san'atkor va iste'dodli ijodkorlarni tuman va shahrlardagi madaniy ishlar bo'yicha ko'makchi sifatida biriktirish o'z natijasini berayotganini inobatga olib, ushbu tajribani butun mamlakatga keng yoyish bo'yicha ko'rsatmalar berib o'tildi hamda unga muvoffiq tarzda ishlar amalga oshirildi. Musiqa va san'at sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni ko'paytirish masalasiga ham katta e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kelgusi besh yilga mo'jallangan ustuvor yo'nalishlar xususida nuq so'zlashdi.

"Xalqimiz talablarini inobatga olgan holda, biz Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqdik va saylov jarayonida uni o'ziga xos umumxalq muhokamasidan o'tkazdik. Bu muhim konseptual hujjatda islohotlarimizning uzviyligi va davomiyligini ta'minlash maqsadida, "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot

strategiyasi sari” degan tamoil asosiy g‘oya va bosh mezon sifatida kun tartibiga qo‘yildi”, deya ta’kidlab o‘tdi o‘z nuqtida Prezidentimiz.

Yuqorida qayd etilganidek ushbu taraqqiyot strategiyasi yeti yo‘nalishdan iborat bo‘lib, to‘rtinchi yo‘nalishida yoshlarga e‘tibor qaratilgan.

Ushbu yo‘nalishda, sifatli ta’lim-tarbiya masalasi doimiy e‘tibor markazida bo‘lishi ta’kidlandi. Shu maqsadda o‘qituvchilarning oylik maoshini izchil oshirib borish va 2025-yilga borib, 1ming dollar miqdoriga yetkazish ko‘zda tutilgan. Yangi maktablar qurish, mavjudlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sohaning barcha bosqichlari o‘rtasida uzviylikni ta’minlashga qaratilgan Milliy ta’lim dasturi ishlab chiqiladi. [PF-60-son ]

Mustaqillikka ilk qadam qo‘yilgandan so‘ng dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keldi, so‘ngra milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlatimiz rahbari strategik vazifa etib belgiladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak haqiqatan biz ikki Renessansni boshdan kechirib o‘tkazdik, birinchi Renessans Somoniylar davriga to‘g‘ri keladi ya‘ni IX-XII asrlar, ikkinchi Renessans Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib XIV asr oxiri choragi - XVI asr birinchi choragida bo‘lib o‘tdi. Har ikki Renessans davrida davlatimiz dunyoning ilg‘or xalqlari qatorida bo‘lgan. [3.8-10 bet].

Yaxshi natijalarga erishish uchun Uchinchi renessans g‘oyasi istiqbolga intilishga juda mos keladi. Ushbu g‘oyaning safarbarlik kuchi hamda mafkuraviy salohiyati juda yuqori hisoblanadi. Ayni chog‘da tariximizning shonli sahifalari, buyuk ajdodlarimizning bunyodkorlik hamda ijodkorlik salohiyati bilan bog‘lanadi. Bizga ushbu tushuncha kimning avlodlari ekanligimizni eslatib turadi. Uchinchi Renessans oraliq bosqich vazifalari masalan: 2030-yilda, 2040-2050-yillarda, mamlakatimizda aholi jon boshiga taxminan qancha yalpi ichki mahsulotlarning ishlab chiqarilishi, jahon reytingida taxminan qanday o‘rinlarga ko‘tarilishi xususida hamda ta’lim, madaniyat, ilm-fan sohalarida qanday ko‘rsatkichlarni marralarni zabt etishimiz va ular bo‘yicha mo‘ljallar belgilanishi lozim. Natijada ushbu g‘oyaning safarbarlik ta’siri aniq va kuchli bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida aytib o‘tishimiz joizki, har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmush tarzining yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina eng oliy natijalarga erishish mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yangi O‘zbekistonning iste’dodli yoshlari Ilmiy ishlar to‘plami Birinchi kitob Toshkent 2020.
2. Yangi O‘zbekiston - Taraqqiyot Strategiyasi Shavkat.Mirziyoyev Toshkent 2022.

3. Yangi O‘zbekiston - Taraqqiyot Strategiyasi Asosida demokratik islohotlar yo‘lini qa’tiy davom ettiramiz. Shavkat Mirziyoyev Toshkent 2023.
4. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda barpo etamiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent 2016.
5. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Shavkat Mirziyoyev Toshkent 2017.